

## Fuqaro mudofaasi taktik o'quv amaliyoti

Farg'ona viloyati hokimi buyrug'i asosida 3 avgust kuni Rishton tumanidagi Xoja Ilg'or MFY binosi hududida favqulodda vaziyat yuz bergan paytda amalga oshiriladigan qutqaruv va evakuatsiya jarayonlari amaliyoti o'tkazildi. Tuman hokimi o'rinnbosari, tuman evakuatsiya guruhi rahbari M.Bekmirzaeva fuqaro mudofaasi dolzarb vazifa ekani haqida ma'lumot berdi.Dastlab MFY raisi zilzila va yong'in haqida jarchilarni ogoh qilib, vaziyat yuzasidan bong urish, turli tegishli idoralarga xabar berishni buyurdi.

Sirenalar baxtsiz hodisa yuz berganidan darak berardi. Ma'lum bo'lishicha, bir necha uylar zilzila oqibatida vayron bo'lgan, bolalar va kattalar yiqilgan binolar ostida qolgan. Zudlik bilan jamoat ishlari guruhi, Qizil Yarim Oy jamiyati faollaridan iborat jamoalar shakllantirilib ish bajarishga kirishdi. Tegishli tashkilotlardan yetib kelgan tezkor guruhlar shay holatda edi. Gazchi va elektriklar, o't o'chiruvchilar, favqulodda vaziyatlar xodimlari yordamga otilishdi.

Yarador va boshqa jabrlanganlar vayronalar ostidan chiqarilib birinchi yordam ko'rsatilgach "Tez tibbiy yordam" avtomashinalarida kasalxonaga jo'natildi. Aholini zudlik bilan Rishton sanoat kolleji hududiga evakuatsiya qilish boshlandi. Hovlilardan uy hayvonlari, chorva mollarini talafotsiz olib chiqishga muvaffaq bo'lindi. Veterinarlar ishga tushdi.

Rishton sanoat kolleji binosining 1-qavatida favqulodda vaziyatlarda yordam ko'rsatish xonalari shay etilgan. Chap tomonda onalar va bolalar, qariyalar, ayollar, erkaklar xonalari alohida tayyorlab qo'yilgan. O'ng tomonda esa birinchi yordam ko'rsatish uchun hamshira va hakimlar, psixolog xonalari tayyorlangan. Bu yerda evakuatsiya qilingan kishilarni joylashtirish boshlandi. Xonalarda barcha sharoitlar muhayyo qilindi.

Amaliyot jarayonlarini Farg'ona viloyat FVB boshlig'ining xodimlar bo'yicha o'rinnbosari podpolkovnik Umidjon Ismoilov, boshqarma o'quv markazi boshlig'i mayor Isroil Isroilov, Rishton tuman FVB boshlig'i mayor Isroiljon Kenjaboev, uning o'rinnbosari kapitan Muslimbek Ergashev va boshqa mas'ul xodimlar kuzatib baholab bordilar.

2022-08-03 17:21:52